

**Mahmudova Sarvinoz Ixomjon qizi**  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Sharq filologiyasi fakulteti  
Arab tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi  
[mahmudovasarvinoz477@gmail.com](mailto:mahmudovasarvinoz477@gmail.com)

## **ARAB TILIDA ANIQLIK VA NOANIQLIK KATEGORIYASI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola arab tilida aniqlik va noaniqlik kategoriyasining grammatik funksiyalari, tuzilishi va til tizimidagi o‘rni hamda ahamiyatini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada arab tilining sintaktik va semantik xususiyatlari, aniqlik va noaniqlik kategoriyasining boshqa tillar, xususan, o‘zbek tili bilan qiyosiy tahlili ko‘rsatilgan. Ushbu maqola arab tilini o‘rganayotgan talabalarga foydali bo‘lishi mumkin.

**Kalit so‘zlar va iboralar:** arab tili, aniq holat, noaniq holat, artikl, tanvin.

**Аннотация.** Данная статья анализирует грамматические функции, структуру, место и значение категорий определённости и неопределённости в арабском языке. Также в статье рассматриваются синтаксические и семантические особенности арабского языка, проводится сравнительный анализ категории определённости и неопределённости с другими языками, в частности, с узбекским. Эта статья может быть полезна студентам, изучающим арабский язык.

**Ключевые слова и выражения:** арабский язык, определенная форма, неопределенная форма, артикль, танвин.

**Annotation.** This article analyzes the grammatical functions, structure, role, and significance of the categories of definiteness and indefiniteness in the Arabic language. It also examines the syntactic and semantic features of Arabic, providing a comparative analysis of the category of definiteness and indefiniteness with other languages, particularly Uzbek. This article may be useful for students learning Arabic.

**Keywords and phrases:** Arabic language, definite form, indefinite form, article, tanween.

Jahon tillaridan biri deb e‘tirof etilgan arab tili boy va murakkab til sistemasiga ega bo‘lib, bir necha muhim grammatik kategoriyalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Shu jumladan, aniqlik (المعرفة) va noaniqlik (التكثرة) kategoriyasi muhim ahamiyatga ega. Maqolada ushbu kategoriyalarni tahlil qilish orqali arab tilining uslubiy va grammatik xususiyatlarini ochib berish maqsad qilingan.

### ➤ **Arab tilida aniqlik**

Nutq davomida gap ba‘zan so‘zlovchi va tinglovchiga oldindan ma‘lum bo‘lgan predmet yoki shaxs haqida borishi mumkin. Ba‘zan mavzu umuman noma‘lum shaxs yoki narsa borasida bo‘lishi ham mumkin. Agar gap oldindan ma‘lum bo‘lgan predmet yoki shaxs haqida bo‘lsa, bunday so‘zlar aniq holatda hisoblanadi. Shu o‘rinda shuni ta‘kidlab o‘tishimiz kerakki, ism guruhiga kiruvchi so‘zlar aniq va noaniq holatlarga bo‘linishi bilan bir qatorda aniqlik kategoriyasiga mansub, ya‘ni aniq holatdagi ismlar ham 7 qismga bo‘linadi.

### **ANIQ HOLATDAGI SO‘ZLAR:**

1. **al artikli qo‘shilib kelgan ismlar** : الجامعة، المدرسة، الكتاب ، الطالب
2. **Atoqli otlar:** a) **tanvin bilan tugaydigan kishi nomlari:** منصور ، عباس، زياد، هشام ، محمد

b) **tanvin bilan tugamaydigan kishi nomlari:** عمر ، سليمان ، مريم ، عثمان

c) **tanvin olmaydigan geografik nomlar:** عمان، مصر، سمرقند، تونس

3. **Kishilik olmoshlari:** أنا ، انت ، أنت ، هو ، هي ، أنتما ، هما ، نحن ، هم ، هن
4. **Ko‘rsatish olmoshlari:** هذا ، هذه ، هذان ، هاتان ، هؤلاء ، ذلك ، تلك ، أولئك
5. **Nisbiy olmoshlar:** الذي ، التي ، اللذان ، اللذين
6. **Qaratqich-qaralmish shaklidagi birikmaning (izofa birikmasining) 1-bo‘lagi:** *universitet kutubxonasi*- مكتبة الجامعة ، *maktab o‘quvchisi* - تلميذ المدرسة
7. **undalmasi bilan kelgan so‘zlar:**

يا طالب ، يا أمي

Yuqorida aniq holatdagi otlarni bir necha qismlarga bo‘lgan holatda misollar yordamida tahlil qilib chiqdik. Noaniqlik kategoriyasiga esa quyidagichadir.

### ➤ 2. Arab tilida noaniqlik

❖ Noaniq holatdagi ismlar predmet yoki tushunchaning umumiy nomidan iborat bo‘ladi. Noaniq holatdagi ismlarga o‘zbek tilida “bir”, “qandaydir” so‘zlari qo‘shilsa, ma’noga putr yetmaydi. Noaniq holatdagi ismni aniq holatga o‘tkazish uchun so‘zga “al” artikli - “shu” yoki “o‘sha” ma’nosidagi old qo‘shimchani qo‘shish lozim. Bu old qo‘shimchaga ega bo‘lgan so‘zning oxiridagi tanvin tushib qoladi:

التَّرْجُمَةُ	المَعْرِفَةُ	التَّرْجُمَةُ	النَّكْرَةُ
<i>kitob (aniq)</i>	الكتاب	<i>bir kitob</i>	كِتَابٌ
<i>sumka (aniq)</i>	الحَقِيْبَةُ	<i>bir sumka</i>	حَقِيْبَةٌ
<i>universitet (aniq)</i>	الجامعة	<i>universitet (noaniq)</i>	جامعة
<i>kutubxona (aniq)</i>	المكتبة	<i>kutubxona (noaniq)</i>	مَكْتَبَةٌ

Lekin bu qoida har doim ham qo‘l kelavermaydi, negaki “al” artiklini olmaydigan ayrim atoqli otlar va joy nomlari ham mavjud. Ularning har birini yodda saqlash va kerakli o‘rinlarda to‘g‘ri holatda ishlatish maqsadga muvofiqdir.

### ➤ 3. Arab tilidagi ushbu kategoriyaning o‘zbek tili bilan qiyosiy tahlili

❖ Arab tilidagi aniqlik (التَّعْرِيف) va noaniqlik (التَّنْكِير) kategoriyalari o‘zbek tilidagi aniqlik va noaniqlik tushunchalariga o‘xshash bo‘lsa ham, ayrim farqlarga ega. Arab tilida aniqlik “al” artikli yordamida ifodalanadi. O‘zbek tilida esa aniqlik artikli mavjud bo‘lmaganligi sababli kontekst va so‘z birikmalari orqali ifodalanadi. Arab tilida otning oxirida noaniqlikni ifodalovchi tanvin keladi. O‘zbek tilida esa bu jihat mavjud emas. Bu xususiyat o‘zbek tilida “qandaydir”, “bir” kabi so‘zlar orqali ifodalanadi.

- **Aniq holatdagi ismlar ishtirok etgan gaplardan misollar:**

Men talabaman. - أنا طالبة .

*Toshkent go'zal shahardir. - طشقند مدينة جميلة.*

*Kecha bozordan yangi ko'ylak sotib oldim. - اشتريت الفستان الجديد أمس.*

• **Noaniq holatdagi ismlar ishtirok etgan gaplardan misollar:**

*Tirishqoq talaba doimo darsdan keyin kutubxonada turli xil kitoblar o'qiydi. - يقرأ طالب مجتهد كتب مختلفة بعد الدرس دائماً.*

*Ko'chada mushukni ko'rdim. - رأيت قطّة في الشارع.*

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, arab tilidagi aniqlik va noaniqlik kategoriyasi ushbu tilning naqadar boy va shu bilan bir paytda murakkab ekanligini aks ettiradi. Ushbu kategoriyadan kerakli o'rinlarda samarali foylalanilsa, gapning ma'nosini yana ham boyitishiga va uning izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Aripova Z. Sharq tillari (Arab). O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018, (74-75-betlar).
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024, (26-27-betlar).
3. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2019, (57-58-betlar).
4. Холидов Б.З. Араб тили дарслиги. – Тошкент, 2007, (56-57 бетлар).
5. [www.arabic.uz](http://www.arabic.uz)